LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL

Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

AXBOROT HUQUQI VA “YOLG‘ON” XABAR (FAKE NEWS) MUAMMOSI: MAQSADLARI, TARQALISH SHAKLLARI VA QONUNIY KURASH CHORALARI

Rustamov Azizbek Mirjon o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Elektron pochta: rustamovazizbek080@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada zamonaviy axborot makonida keng tarqalib borayotgan yolg‘on axborotlar, ularning yuzaga kelish sabablari, asosiy maqsadlari va jamiyat hayotiga ko‘rsatadigan salbiy ta’siri huquqiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Xususan, internet tarmoqlari, ijtimoiy platformalar, messenjerlar va ommaviy axborot vositalari orqali tarqatiladigan soxta xabarlarning xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida yolg‘on axborot tarqatganlik uchun nazarda tutilgan ma’muriy va jinoiy javobgarlik choralari o‘rganiladi. Maqolada axborot erkinligini ta’minlash bilan bir qatorda fuqarolarning sha’ni, qadr-qimmati, huquqlari va jamoat xavfsizligini himoya qilish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Muallif tomonidan yolg‘on axborotga qarshi kurashishda huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, media savodxonlikni oshirish hamda axborot tarqatishda shaxsiy mas’uliyatni kuchaytirishga doir takliflar ilgari suriladi.*

Kalit so‘zlar: *axborot huquqi, fake news, yolg‘on axborot, dezinformatsiya, axborot erkinligi, internet, ijtimoiy tarmoqlar, media savodxonlik, so‘z erkinligi, huquqiy javobgarlik, jamoat xavfsizligi.*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

ИНФОРМАЦИОННОЕ ПРАВО И ПРОБЛЕМА «ЛОЖНЫХ» НОВОСТЕЙ (FAKE NEWS): ЦЕЛИ, ФОРМЫ РАСПРОСТРАНЕНИЯ И ПРАВОВЫЕ МЕРЫ БОРЬБЫ

Рустамов Азизбек Миржон угли
Ташкентский государственный юридический университет
Электронная почта: rustamovazizbek080@gmail.com

Аннотация. В данной научной статье с правовой точки зрения анализируются ложные сведения, широко распространяющиеся в современном информационном пространстве, причины их возникновения, основные цели и негативное влияние на жизнь общества. В частности, раскрываются особенности фейковых сообщений, распространяемых через интернет, социальные платформы, мессенджеры и средства массовой информации. Также изучаются меры административной и уголовной ответственности, предусмотренные законодательством Республики Узбекистан за распространение ложной информации. Наряду с обеспечением свободы информации в статье особое внимание уделяется вопросам защиты чести, достоинства и прав граждан, а также общественной безопасности. Автором выдвигаются предложения по совершенствованию правовых механизмов противодействия ложной информации, повышению медиаграмотности и усилению личной ответственности при распространении информации.

Ключевые слова: информационное право, fake news, ложная информация, дезинформация, свобода информации, интернет, социальные

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

сети, медиаграмотность, свобода слова, правовая ответственность, общественная безопасность.

INFORMATION LAW AND THE PROBLEM OF FAKE NEWS: PURPOSES, FORMS OF DISSEMINATION AND LEGAL COUNTERMEASURES

Rustamov Azizbek Mirjon ugli
Tashkent State University of Law
E-mail: rustamovazizbek080@gmail.com

Abstract. This article analyses, from a legal perspective, the false information that is spreading widely in today's information space, the reasons for its emergence, its main purposes and its negative impact on society. In particular, it describes the features of fake reports disseminated through the internet, social platforms, messengers and the mass media. The article also examines the administrative and criminal liability established by the legislation of the Republic of Uzbekistan for disseminating false information. Alongside ensuring freedom of information, particular attention is paid to protecting the honour, dignity and rights of citizens and public safety. The author puts forward proposals to improve legal mechanisms for countering false information, raise media literacy and strengthen personal responsibility in sharing information.

Keywords: information law, fake news, false information, disinformation, freedom of information, internet, social networks, media literacy, freedom of speech, legal liability, public safety.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

KIRISH. XXI asrda axborot inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida insonlar dunyoning istalgan nuqtasida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar haqida bir necha soniya ichida ma’lumot olish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Ilgari axborot tarqatish asosan gazeta, jurnal, radio va televideniye orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar ushbu jarayonning asosiy vositalaridan biriga aylandi.

Biroq axborot almashish imkoniyatlarining kengayishi faqat ijobiy natijalarni keltirib chiqarmadi. Axborot makonida haqiqatga mos kelmaydigan, ataylab buzib ko‘rsatilgan yoki jamoatchilik fikriga ta’sir o‘tkazish maqsadida tayyorlangan xabarlar ham ko‘paydi. Xalqaro amaliyotda bunday hodisalar ko‘pincha “fake news” va “disinformation” tushunchalari orqali ifodalanadi.

Yolg‘on axborot muammosi bugungi kunda faqat jurnalistika yoki axborot texnologiyalariga tegishli masala emas. U bevosita inson huquqlari, davlat xavfsizligi, iqtisodiy barqarorlik, jamoat tartibi va demokratik institutlar faoliyatiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, muayyan shaxs haqida tarqatilgan asossiz xabar uning obro‘siga zarar yetkazishi, bank yoki moliya tashkiloti haqidagi yolg‘on ma’lumot fuqarolar orasida vahima keltirib chiqarishi, sog‘liqni saqlashga oid noto‘g‘ri tavsiyalar esa inson hayoti va salomatligi uchun xavf tug‘dirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida har kimning fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi, shuningdek istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqi kafolatlangan [1]. Shu bilan birga, mazkur huquqni cheklashga faqat qonunda belgilangan asoslar va zarur doirada yo‘l qo‘yilishi belgilangan. Demak, axborot erkinligi cheksiz huquq bo‘lmay, boshqa shaxslarning huquqlari va jamoat manfaatlari bilan muvozanatda amalga oshirilishi lozim.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, raqamli muhitda axborotni yaratish va tarqatish imkoniyati oddiy foydalanuvchilar uchun ham ochiq bo‘lib, yolg‘on ma’lumotning tez tarqalishi uning oqibatlarini bartaraf etishni murakkablashtirmoqda.

Tadqiqotning maqsadi axborot huquqi doirasida yolg‘on xabarlarning mazmuni, maqsadlari va tarqalish mexanizmlarini o‘rganish, O‘zbekiston qonunchiligidagi huquqiy javobgarlik choralarini tahlil qilish hamda ushbu muammoga qarshi samarali huquqiy va tashkiliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

ASOSIY QISM (MUHOKAMA VA NATIJA). Adabiyotlar tahlili. 3.1. Axborot huquqi va yolg‘on xabar tushunchasining nazariy-huquqiy asoslari. Axborot huquqi axborotni yaratish, yig‘ish, saqlash, izlash, olish, undan foydalanish va tarqatish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar majmuasidir. Ushbu soha insonning axborot olish erkinligini, shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligini, axborot xavfsizligini hamda qonuniy axborot almashinuvini ta’minlashga xizmat qiladi.

Yolg‘on xabar tushunchasini to‘g‘ri anglash uchun bir-biriga yaqin bo‘lgan uchta atamani farqlash muhim [2]:

1) Misinformation noto‘g‘ri yoki chalg‘ituvchi axborot bo‘lib, u har doim ham ataylab tarqatilmaydi. Masalan, fuqaro eski ma’lumotni yangilangan deb o‘ylab, uni boshqa foydalanuvchilarga yuborishi mumkin.

2) Disinformation muayyan shaxs yoki guruhni chalg‘itish, jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatish yoki boshqa manfaatlarga erishish maqsadida bila turib tarqatiladigan yolg‘on axborotdir.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

3) Mal-information aslida mavjud yoki haqiqatga yaqin ma’lumotdan zarar yetkazish maqsadida foydalanish, jumladan uni muayyan kontekstdan uzib ko‘rsatish yoki shaxsiy hayotga oid ma’lumotlarni noqonuniy oshkor etish bilan bog‘liq hodisadir.

Ushbu tushunchalar UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan axborot buzilishi haqidagi nazariy yondashuvlarda ham farqlanadi [3; 4].

Mening fikrimcha, har qanday xato ma’lumotni ataylab tarqatilgan dezinformatsiya bilan tenglashtirish to‘g‘ri emas. Huquqiy baholashda axborotning mazmuni, uning haqiqatga muvofiqligi, tarqatuvchining xatti-harakati, aybi va qonunda nazarda tutilgan boshqa belgilar alohida o‘rganilishi lozim.

“Fake news” atamasi keng qo‘llanilishiga qaramasdan, ilmiy jihatdan uni har qanday noto‘g‘ri axborotga nisbatan ishlatish maqsadga muvofiq emas [5]. Chunki xato, satirik, tanqidiy yoki shunchaki bahsli fikrlar bilan ataylab ishlab chiqilgan yolg‘on xabarlar o‘rtasida muhim farqlar mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida tahlil, qiyosiy-huquqiy o‘rganish, umumlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning manbaviy asosini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, axborot sohasidagi qonunlar, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks va Jinoyat kodeksi normalari, UNESCO va Yevropa Kengashi nashrlari hamda Yevropa Ittifoqining raqamli xizmatlarga oid hujjati tashkil etdi.

Natijalar. 3.2. Yolg‘on axborot tarqatishning asosiy maqsadlari. Yolg‘on axborotlar tasodifiy xatolar natijasida ham yuzaga kelishi mumkin, biroq ularning muayyan qismi aniq manfaatlarni ko‘zlab ishlab chiqiladi. Bunday xabarlarni tayyorlash va tarqatishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlarni quyidagicha tasniflash mumkin.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Birinchidan, siyosiy maqsadlar. Ayrim hollarda yolg‘on axborot siyosiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatish, muayyan nomzod yoki davlat organining obro‘sini tushirish, saylovchilar fikrini o‘zgartirish yoki jamiyatda ishonchsizlik muhitini shakllantirish uchun ishlatiladi.

Ikkinchidan, iqtisodiy manfaatlar. Ayrim shaxslar ko‘proq ko‘rishlar, reklama daromadlari va obunachilar sonini oshirish maqsadida shov-shuvli, lekin haqiqatga mos kelmaydigan xabarlarni tarqatadi. Bundan tashqari, raqobatchi korxonaning obro‘siga putur yetkazish orqali iqtisodiy ustunlikka erishishga urinishlar ham uchraydi.

Uchinchidan, ijtimoiy va psixologik ta’sir. Yolg‘on xabarlar odamlarning qo‘rquvi, xavotiri, g‘azabi yoki qiziqishidan foydalanishi mumkin. Ayniqsa, favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar va boshqa keskin davrlarda tekshirilmagan ma’lumotlar jamiyatda vahima uyg‘otish ehtimolini oshiradi.

To‘rtinchidan, shaxsiy adovat va obro‘sizlantirish. Ayrim hollarda yolg‘on axborot muayyan shaxsni kamsitish, uning sha’ni va qadr-qimmatiga putur yetkazish yoki ishchanlik obro‘siga zarar yetkazish maqsadida tarqatiladi.

Beshinchidan, firibgarlik va noqonuniy daromad olish. Soxta investitsiya takliflari, qalbaki yutuqlar, yolg‘on chegirmalar va boshqa aldov xabarlari orqali fuqarolarning pul mablag‘larini qo‘lga kiritishga urinishlar mavjud.

Demak, yolg‘on axborotning xavfi faqat uning noto‘g‘riligida emas, balki undan foydalanish orqali qanday oqibatlar keltirib chiqarilishida ham namoyon bo‘ladi.

3.3. Yolg‘on xabarlarning tarqalish shakllari va zamonaviy mexanizmlari. Raqamli texnologiyalar yolg‘on axborotning tarqalish tezligi va

ko‘lamini sezilarli darajada oshirdi. Bugungi kunda bunday ma’lumotlar turli platformalar va usullar orqali tarqatilmoqda.

1. Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatish. Telegram, Instagram, Facebook, TikTok va boshqa platformalarda yolg‘on xabarlar matn, rasm, video yoki ovozli xabar ko‘rinishida tarqatiladi. Ayniqsa, manbasi noma’lum kanallar va sahifalar orqali e’lon qilingan shov-shuvli ma’lumotlar foydalanuvchilar tomonidan tezda boshqalarga uzatilishi mumkin.

2. Messenjerlardagi yopiq guruhlar orqali tarqatish. WhatsApp va Telegram guruhlarida tarqaladigan xabarlar ko‘pincha tanishlar yoki yaqin insonlar tomonidan yuborilgani sababli ishonchli deb qabul qilinadi. Natijada foydalanuvchilar xabarning asl manbasini tekshirmasdan uni boshqalarga yuborishi mumkin.

3. Soxta foto va videomateriallardan foydalanish. Grafik tahrirlash dasturlari yordamida o‘zgartirilgan tasvirlar, eski videolarni yangi voqea sifatida ko‘rsatish yoki tasvirga noto‘g‘ri izoh berish orqali jamoatchilik chalg‘itiladi.

4. Deepfake texnologiyasi. Sun’iy intellekt yordamida insonning yuzi, ovozi yoki harakatlarini sun’iy tarzda yaratish va o‘zgartirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu texnologiya ijodiy maqsadlarda ham ishlatilishi mumkin, ammo undan shaxs nomidan yolg‘on bayonotlar tayyorlash yoki fuqarolarni aldashda foydalanish jiddiy xavf tug‘diradi.

5. Botlar va soxta akkauntlar. Avtomatlashtirilgan dasturlar va soxta profillar orqali bir xil xabar ko‘plab sahifalarda takroran e’lon qilinishi mumkin. Buning natijasida foydalanuvchilarda ushbu ma’lumot keng tan olingan yoki ishonchli ekanligi haqida noto‘g‘ri tasavvur paydo bo‘ladi.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

6. Sarlavha va kontekstni buzib ko‘rsatish. Ayrim hollarda xabarning asosiy mazmuni haqiqatga yaqin bo‘lsa-da, uning sarlavhasi, ayrim jumlalari yoki videodan olingan parchalar o‘zgartirilib, butunlay boshqa ma’no hosil qilinadi.

Shu o‘rinda muhim bir jihatni ta’kidlash lozim: axborotning ko‘p marotaba ulashilgani uning ishonchliligini anglatmaydi. Raqamli muhitda mashhurlik va haqiqat bir xil tushunchalar emas.

3.4. Yolg‘on axborotning jamiyat va inson huquqlariga salbiy ta’siri. Yolg‘on axborotning oqibatlari turli sohalarda namoyon bo‘ladi.

Birinchi navbatda, u fuqarolarning axborotga bo‘lgan ishonchini susaytiradi. Haqiqiy va soxta ma’lumotlar bir-biridan ajratilishi qiyinlashgan sari odamlar hatto ishonchli axborot manbalariga ham shubha bilan qaray boshlaydi.

Ikkinchidan, yolg‘on xabarlar shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin. Masalan, biror fuqaro haqida asossiz ayblovlar tarqatilishi uning sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘siga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Uchinchidan, bunday xabarlar jamoat xavfsizligiga tahdid tug‘dirishi mumkin. Favqulodda vaziyatlar yoki muhim ijtimoiy jarayonlar vaqtida noto‘g‘ri ma’lumot tarqalishi fuqarolarning noto‘g‘ri qaror qabul qilishiga sabab bo‘ladi.

To‘rtinchidan, yolg‘on axborot iqtisodiy zarar keltirib chiqaradi. Masalan, moliya tashkiloti faoliyati haqida tarqatilgan asossiz vahimali xabar uning mijozlari orasida ishonchsizlikni yuzaga keltirishi mumkin.

Shunday qilib, yolg‘on axborotga qarshi kurashish faqat axborot maydonini tartibga solish masalasi emas, balki inson huquqlari va jamiyat barqarorligini himoya qilish vositasi ham hisoblanadi.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

3.5. O‘zbekiston Respublikasida yolg‘on axborot tarqatganlik uchun qonuniy javobgarlik. O‘zbekiston Respublikasida axborot munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy huquqiy manbalardan biri Konstitutsiya hisoblanadi.

Konstitutsiyaning 33-moddasi axborotni izlash, olish va tarqatish huquqini kafolatlaydi. Shu bilan birga, mazkur huquqni qonunda belgilangan asoslarda, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklari hamda jamoat xavfsizligini himoya qilish maqsadida cheklash mumkin.

Konstitutsiyaning 34-moddasida davlat organlari va tashkilotlarining fuqarolarga ularning huquq va qonuniy manfaatlariga daxldor materiallar bilan tanishish imkoniyatini ta’minlash majburiyati belgilangan.

Yolg‘on axborot tarqatish bilan bog‘liq munosabatlarda quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar muhim ahamiyatga ega:

1) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [1];

2) “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun [6];

3) “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonun [7];

4) “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonun [8];

5) O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi [9];

6) O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi [10].

Ma’muriy javobgarlik. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 202^2-moddasi yolg‘on axborot tarqatish bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni nazarda tutadi [9].

Mazkur modda doirasida shaxsning qadr-qimmati kamsitilishiga yoki obro‘sizlantirilishiga olib keladigan yolg‘on axborotni, shu jumladan ommaviy

axborot vositalari, telekommunikatsiya tarmoqlari yoki internet orqali tarqatish uchun javobgarlik belgilangan.

Shuningdek, jamoat tartibiga yoki jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi yolg‘on axborotni tarqatish ham ma’muriy javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Jinoiy javobgarlik. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 244^6-moddasida yolg‘on axborot tarqatish bilan bog‘liq ayrim qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan [10].

Xususan, ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin tegishli qilmishni takroran sodir etish qonunda belgilangan shartlar asosida jinoiy javobgarlikka sabab bo‘lishi mumkin.

Jinoyat kodeksida bunday qilmishlar uchun jarima, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari va ozodlikni cheklash kabi jazo choralari nazarda tutilgan.

Bu yerda bir muhim huquqiy jihat mavjud: yolg‘on axborotga oid har qanday holat avtomatik ravishda jinoyat hisoblanmaydi. Javobgarlik turi qilmishning xususiyati, qonunda ko‘rsatilgan tarkibiy belgilar, ayb shakli va boshqa tegishli holatlar asosida aniqlanadi.

Shaxsiy huquqlarni fuqarolik-huquqiy himoya qilish. Yolg‘on xabar tarqatilishi natijasida shaxsning sha’ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro‘siga zarar yetkazilgan holatlarda fuqarolik qonunchiligidagi himoya vositalari ham muhim o‘rin tutadi [11].

Jabrlangan shaxs qonunchilikda belgilangan tartibda sudga murojaat qilib, haqiqatga mos kelmaydigan ma’lumotlarni rad etishni, zarar mavjud bo‘lsa uni qoplashni va tegishli hollarda ma’naviy zarar kompensatsiyasini talab qilishi mumkin.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Demak, yolg‘on axborotga qarshi huquqiy kurash faqat jazolash bilan cheklanmaydi. Bunda buzilgan huquqlarni tiklash va yetkazilgan zararni qoplash ham muhim hisoblanadi.

Muhokama. 3.6. Xorijiy davlatlar tajribasi va xalqaro yondashuvlar. Yolg‘on axborot muammosi faqat O‘zbekiston uchun xos emas. Dunyoning ko‘plab mamlakatlari ushbu muammoga qarshi huquqiy, texnologik va ma’rifiy vositalardan foydalanmoqda.

Yevropa Ittifoqi tajribasi. Yevropa Ittifoqida raqamli platformalar faoliyatini tartibga solish va foydalanuvchilarni zararli kontentdan himoya qilish masalalariga katta e’tibor qaratiladi. Xususan, Digital Services Act (Raqamli xizmatlar to‘g‘risidagi hujjat) [12] yirik onlayn platformalar uchun tizimli xavflarni baholash, shaffoflik va tegishli xavflarni kamaytirish bo‘yicha majburiyatlarni belgilaydi. Bu yondashuvning muhim jihati shundaki, u faqat alohida xabarlarni o‘chirishga emas, balki yolg‘on axborotning keng miqyosda tarqalishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan tizimli omillarni kamaytirishga ham qaratilgan.

Germaniya tajribasi. Germaniyada ijtimoiy tarmoqlardagi noqonuniy kontent bilan ishlash masalalariga alohida e’tibor beriladi. NetzDG qonuni ijtimoiy tarmoqlarning ayrim noqonuniy materiallar bo‘yicha shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmlarini tartibga solgan. Bunda asosiy e’tibor barcha noto‘g‘ri fikrlarni taqiqlashga emas, balki qonunga xilof kontent bilan kurashishga qaratiladi.

Fransiya tajribasi. Fransiyada saylov jarayonlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan yolg‘on axborot tarqalishining oldini olishga qaratilgan maxsus qonunchilik mexanizmlari mavjud. Xususan, saylovoldi davrida sud orqali

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

muayyan shartlar asosida yolg‘on axborotni tarqatishni to‘xtatish choralarini qo‘llash imkoniyati nazarda tutilgan.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, yolg‘on axborotga qarshi samarali kurashish uchun faqat jazo choralarini kuchaytirish yetarli emas. Huquqiy mexanizmlar so‘z erkinligi, mustaqil jurnalistika va insonning axborot olish huquqi bilan muvozanatda bo‘lishi zarur.

3.7. Yolg‘on axborotga qarshi kurashishning samarali yo‘llari va mualliflik takliflari. Yolg‘on axborotning oldini olishda huquqiy javobgarlik muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, muammoni faqat jarima yoki boshqa jazo choralarini qo‘llash orqali to‘liq hal qilib bo‘lmaydi. Chunki axborot tarqalishining tezligi va ko‘lami uning oqibatlarini oldindan aniqlashni qiyinlashtiradi. Ushbu muammoni samarali hal etish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

1. Media va axborot savodxonligini oshirish. Ta’lim muassasalarida axborot manbalarini tekshirish, yolg‘on xabarlarni aniqlash va raqamli xavfsizlik bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni kengaytirish lozim. Fuqarolar faqat axborot iste’molchisi emas, balki uni tarqatuvchi ham ekanligini anglab yetishi kerak.

2. Rasmiy axborotning ochiqligi va tezkorligini kuchaytirish. Davlat organlari muhim voqea-hodisalar yuzasidan aniq, tushunarli va o‘z vaqtida ma’lumot berib borishi zarur. Rasmiy axborotning kechikishi yoki yetarli darajada ochiq bo‘lmasligi mish-mishlar tarqalishiga sharoit yaratishi mumkin.

3. Faktlarni tekshirish tizimini rivojlantirish. Ommaviy axborot vositalari, ta’lim muassasalari va mustaqil tashkilotlar ishtirokida faktcheking faoliyatini rivojlantirish lozim. Bunda xabar manbasi, e’lon qilingan sana, foto va videoning asl nusxasi hamda boshqa mustaqil dalillar tekshirilishi kerak.

Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

4. Sun’iy intellekt yordamida yaratilgan soxta materiallarga qarshi choralar ishlab chiqish. Deepfake texnologiyasi orqali yaratilgan materiallarni aniqlash vositalarini rivojlantirish, shuningdek sun’iy yaratilgan audio va videolarni tegishli hollarda belgilash mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

5. Huquqiy javobgarlikni qo‘llashda mutanosiblikni ta’minlash. Yolg‘on axborot tarqatish bilan bog‘liq holatlarni baholashda tanqidiy fikr, satira, jurnalistik surishtiruv va xato xabarlarni qasddan tarqatilgan zararli dezinformatsiyadan farqlash lozim. Javobgarlik qonuniylik, ayb va mutanosiblik tamoyillariga asoslanishi kerak.

6. Fuqarolar uchun xabarlarni tekshirishning oddiy mexanizmini ommalashtirish. Har bir foydalanuvchi xabarni ulashishdan oldin uning manbasini, sanasini va boshqa ishonchli manbalardagi tasdig‘ini tekshirishi kerak. Bu oddiy odat yolg‘on axborotning keng tarqalishini sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi.

Umuman olganda, eng samarali yondashuv uchta asosiy yo‘nalishni birlashtirishi lozim: huquqiy javobgarlik, texnologik himoya va fuqarolarning axborot savodxonligi.

XULOSA. O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, yolg‘on axborot zamonaviy axborot jamiyatining eng dolzarb huquqiy va ijtimoiy muammolaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar axborot almashish jarayonini tezlashtirgan bo‘lsa-da, ayni vaqtda noto‘g‘ri va ataylab buzib ko‘rsatilgan ma’lumotlarning keng tarqalishiga ham imkoniyat yaratdi.

Yolg‘on axborotning xavfi uning faqat haqiqatga mos kelmasligida emas, balki inson huquqlariga, jamoat xavfsizligiga, iqtisodiy barqarorlikka va jamiyatdagi o‘zaro ishonchga salbiy ta’sir ko‘rsatishida namoyon bo‘ladi.

Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

O‘zbekiston Respublikasida axborot olish va tarqatish erkinligi konstitutsiyaviy darajada kafolatlangan. Shu bilan birga, yolg‘on axborot tarqatish bilan bog‘liq ayrim qilmishlar uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlik belgilangan. Bu esa davlatning axborot erkinligi bilan boshqa shaxslarning huquqlari va jamoat manfaatlari o‘rtasida muvozanatni ta’minlashga intilayotganini ko‘rsatadi.

Maqola doirasida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

Birinchidan, yolg‘on axborotga qarshi kurashishda uning ataylab yoki bilmasdan tarqatilganini farqlash muhim. Chunki huquqiy javobgarlikni belgilashda ayb va qilmishning qonuniy belgilari asosiy ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, yolg‘on axborotning oldini olish faqat davlat organlari yoki huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarning vazifasi emas. Bu jarayonda jurnalistlar, internet platformalari, ta’lim muassasalari va har bir fuqaro mas’uliyat bilan ishtirok etishi lozim.

Uchinchidan, huquqiy choralar so‘z va axborot erkinligini asossiz cheklash vositasiga aylanmasligi kerak. Qonuniy tanqid, fikr bildirish va jurnalistik faoliyat bilan qasddan yolg‘on ma’lumot tarqatish o‘rtasidagi chegara aniq saqlanishi zarur.

To‘rtinchidan, media savodxonlikni rivojlantirish yolg‘on axborotga qarshi uzoq muddatli va barqaror yechimlardan biridir. Chunki axborotning ishonchliligini mustaqil baholay oladigan fuqaro dezinformatsiyaning tarqalish zanjirini to‘xtatishda faol ishtirok etadi.

Xulosa qilib aytganda, axborot erkinligi jamiyatning rivojlanishi uchun zarur shart bo‘lsa, ishonchli axborot uning barqarorligi uchun muhim asosdir. Shu sababli zamonaviy huquqiy davlat oldidagi asosiy vazifa axborotni cheklash emas, balki fuqarolarning erkin va ishonchli axborot muhitida yashash huquqini ta’minlashdan iborat bo‘lishi kerak.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel kuni referendum orqali qabul qilingan. URL: https://lex.uz/docs/-6445145

2. Wardle, C., Derakhshan, H. Information Disorder: Toward an Interdisciplinary Framework for Research and Policy Making. Strasbourg: Council of Europe, 2017.

3. Ireton, C., Posetti, J. (eds.). Journalism, Fake News & Disinformation: Handbook for Journalism Education and Training. Paris: UNESCO, 2018.

4. UNESCO. Disinformation: Definition and explanatory materials. URL: https://www.unesco.org/en/query-list/d/disinformation

5. Муратова, Н., Тошпулатова, Н., Алимова, Г. Fake news: дезинформация в медиа. Ташкент: Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2020.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2002-yil 12-dekabr.

7. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni. 2003-yil 11-dekabr.

8. O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri). 2007-yil 15-yanvar.

9. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. 202^2-modda.

10. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 244^6-modda.

11. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.

12. European Union. Regulation (EU) 2022/2065 of 19 October 2022 on a Single Market for Digital Services (Digital Services Act).

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

ILOVALAR

1-ilova

Yolg‘on axborotning asosiy turlari

Axborot turi	Mazmuni	Misol
Misinformation	Bilmasdan tarqatilgan noto‘g‘ri axborot	Eski xabarni yangi deb ulashish
Disinformation	Ataylab yaratilgan yolg‘on axborot	Soxta rasmiy bayonot tarqatish
Mal-information	Haqiqiy ma’lumotdan zarar yetkazish maqsadida foydalanish	Shaxsiy ma’lumotni zarar yetkazish uchun oshkor qilish
Deepfake	Sun’iy intellekt yordamida soxtalashtirilgan material	Shaxs nomidan soxta video tayyorlash

2-ilova

Yolg‘on axborotga qarshi kurashishning amaliy algoritmi

1. Xabarni olgandan so‘ng uni darhol boshqalarga yubormaslik.
2. Axborotning dastlabki manbasini aniqlash.
3. Xabar e’lon qilingan sana va vaqtni tekshirish.
4. Ma’lumotni kamida ikkita mustaqil va ishonchli manba bilan solishtirish.
5. Foto va videolarning asl kontekstini aniqlash.
6. Shubhali yoki noqonuniy kontent aniqlansa, tegishli platformaga shikoyat qilish yoki qonuniy tartibda vakolatli organlarga murojaat etish.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

3-ilova

Mavzuga oid shartli huquqiy vaziyat

Vaziyat: Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi muayyan tadbirkor haqida uning noqonuniy faoliyat bilan shug‘ullanayotgani to‘g‘risida tekshirilmagan xabar e’lon qildi. Ushbu xabar qisqa vaqt ichida minglab foydalanuvchilar tomonidan ulashildi. Keyinchalik xabardagi ma’lumotlar haqiqatga mos kelmasligi aniqlandi.

Huquqiy tahlil:

Tarqatilgan ma’lumotning haqiqatga mosligi tekshirilishi kerak.

Xabar tadbirkorning sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘siga zarar yetkazgan-yetkazmagani baholanadi.

Tarqatuvchining aybi va xatti-harakatiga tegishli huquqiy baho beriladi.

Qonunda belgilangan asoslar mavjud bo‘lsa, ma’muriy yoki boshqa tegishli huquqiy javobgarlik masalasi ko‘rib chiqiladi.

Jabrlangan shaxs qonuniy tartibda raddiya va zararni qoplashni talab qilishi mumkin.

Vaziyatdan kelib chiqadigan xulosa: Internetda axborot tarqatish erkinligi boshqa shaxslarning huquqlarini buzish yoki ularning obro‘siga asossiz zarar yetkazish huquqini bermaydi.

4-ilova

Muallifning yakuniy taklifi

Yolg‘on axborotga qarshi kurashishning eng maqbul modeli quyidagi uchta ustunga asoslanishi lozim:

1. Huquqiy himoya: qonuniy javobgarlik, raddiya berish va buzilgan huquqlarni tiklash.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

2. Axborot savodxonligi: fuqarolarning tanqidiy fikrlashi va axborot manbalarini tekshirish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

3. Texnologik xavfsizlik: soxta akkauntlar, botlar va sun’iy yaratilgan manipulyativ materiallarni aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish.

Ushbu uch yo‘nalishning o‘zaro uyg‘unligi axborot makonida qonuniylik, ishonchlilik va fuqarolarning axborot olish huquqini ta’minlashga xizmat qiladi.